



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIMNI
RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA
ILMIY-METODIK MARKAZI

EMOTIONAL INTELEKT VA BOSHQA SOFT SKILLS KO'NIKMALARI



EMOTSIONAL INTELLEKT

(EQ)

Emotsional intellekt (EQ) — bu o'z his-tuyg'ularni va atrofdagilarning his-tuyg'ularini tushunish, shuningdek, shular orqali hayotni yaxshilash, samarali muloqot qilish va to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun foydalanish qobiliyatidir.



SOFT SKILLS

Bu odamlar bilan yaxshi til topishish, gaplashishni bilish, o'zingni ishonchli tutish va jamoada ishlash ko'nikmalaridir. Bu maktabdagi darslar yoki kasbiy bilimlardan farq qiladi. Bu ko'nikmalar hammaga kerak, chunki ular hayotda mustaqil, o'ziga ishongan va muvaffaqiyatli bo'lishga yordam beradi.



Soft skillsga nimalar kiradi?





Muloqot qilish qobiliyati

1

Boshqalarni tinglash, tushunish va o'z fikringni aniq yetkazish.

Jamoadada ishlash

2

hamkorlik qilish, kelishish va vazifalarni birgalikda bajarish.

Emotsional intellekt

3

o'z va boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish va boshqarish.

Vaqtni boshqarish

4

reja tuzish, ustuvor ishlarni belgilash va o'z vaqtini samarali ishlatish.

HARD SKILLS VS SOFT SKILLS

FARQI NIMADA?



Hard skills

Aniq bilim va texnik ko'nikmalar

Masalan: dasturlash, buxgalteriya hisobi, chet tillarini bilish, mashina boshqarish.

Aniq vazifalarni to'g'ri va sifatli bajarishda — ish jarayonida, amaliyotda ishlatiladi.



Soft skills

Shaxsiy va ijtimoiy ko'nikmalar

Masalan: muloqot qilish, jamoada ishlash, ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish.

Odamlar bilan samarali aloqa o'rnatishda — ishda, o'qishda va kundalik hayotda ishlatiladi.



KREATIV TAFAKKUR

Bu noan'anaviy, noodatiy yechimlar topish qobiliyati, shablonlardan chiqish va muammoning bir necha yechimi bo'lishi mumkinligini tushunishdir.




Bu ma'lum vazifani bajarish bilan shug'ullanuvchi odamlar guruhi. Barcha ishtirokchilar muvaffaqiyatga erishishga qiziqishadi.

JAMOA




KREATIV TAFAKKURNING AHAMIYATI




Muammolarni tez va noodatiy yechish imkonini beradi



Raqobatda ustunlik yaratadi



Yangi g'oyalar va mahsulotlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi



Kreativ tafakkur — bu zamonaviy dunyoda muhim soft skill boʻlib, u faqat sanʼatda emas, balki biznes, taʼlim va kundalik hayotda ham ustunlik yaratadi.